

RANGTASVIRDA RANGLAR ORQALI BORLIQ YOKI HAYOLIJ DUNYONI YUQORI DARAJADA IDROK ETISH

Rahimova Madina Yashnarjon qizi

*Namangan Davlat Universiteti "San'atshunoslik" fakulteti
Amaliy san'at va rang tasvir kafedrası, | | -bosqich talabasi
Telefon raqami: +998913629238*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rangtasvirda ranglar orqali borliq yoki hayolij dunyoni yuqori darajada idrok etish keng yoritiladi. Rangning tasviriy va ta'sirchanlik imkoniyatlaridan rangtasvirda rassomga zarur bo'lgan erkinlik va to'liq kuch bilan foydalaniladi. Rangtasvirning eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, unda shakl va masofaning tasviri, obrazlar va harakatlar faqat rang orqali ko'riladi.*

Kalit so'zlar: *Rangtasvir moybo'yoq bo'rttirish fantastik obrazlar (Mineralogiya) bezak san'ati borliq tushunchasi | Gyote Abu Rayhon Beruniy abstrakt siluet*

Rangtasvir - rang san'ati. Rangtasvir xaqiqiy hayotni aks ettirib, tomoshabinning fikri va hissiyotlariga ta'sir o'tkazuvchi tasviriy san'at turlaridan biridir. Biror bir satx yuzasiga, bo'yoqlar (moybo'yoq, tempera, akvarel guash va boshqalar) bilan bajarilgan san'at asariga rangtasvir deyiladi. Rangning tasviriy va ta'sirchanlik imkoniyatlaridan rangtasvirda rassomga zarur bo'lgan erkinlik va to'liq kuch bilan foydalaniladi. Rang orqali kompozitsiyadagi asosiy fikrni ajratib ko'rsatish, muhim detallarini bo'rttirish, masofani chuqurligini berish yoki tasvirning yassiligini berish mumkin. Rangtasvir inson hissiyotlari va xarakterining murakkab dunyosini aks ettirishi bilan birga tabiatning nozik o'zgarishlari, fantastik obrazlar va falsafiy fikrlarni berish xususiyatiga ega. Rangtasvir asarlari ishlanishini shartli ikki — yassi va hajmli — fazoviy uslubga ajratish mumkin: birinchi uslubda tasvir nursoyasiz yaxlit yassi shakllarda ishlanadi, hajmli fazoviy usulda esa tasvir hajmli nursoya yordamida muhit bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Bunday asarlar rangga boy bo'lib, unda ranglarning barcha tuslanishlarini his etish, tushuvchi nurning qaytgan rangini ham, qaytgan nurlarning tuslanishi va boshqa ranglar bilan boyitishi (refleks)ni ko'rish mumkin. Rangli asarlarda bu ikki uslub orqali va ko'inishiga qarab monumental (monumental san'at, monumental rangtasvir), bezak (bezak san'ati, bezash san'ati) dastgoh san'ati, dekoratsiya (teatr va kino dekoratsiyasi) miniatyura va boshqalarga bo'linadi.

Rang tasvir qadimda so'nggi paleolit (miloddan avvalgi 40-80 ming yilliklar)da paydo bo'lgan. Janubiy Fransiya (Fon de Gom, Lasko), Shimoliy Ispaniya (Altamira), O'rta Osiyo va boshqalarda Rangli asarlar saqlanib qolgan: so'z tuproqli bo'yoqlar, qorakuya, pista kumir bilan ishlangan, rasmlar tekis sharpa sifat (siluet), ba'zilarida esa hajmli qilib ishlashga harakat qilinganligi seziladi, mezolit va neolit davrida bajarilgan ibtidoiy rasmlarda murakkab kompozitsiyalar, abstrakt tushunchalar paydo bo'la boshlagan.

Asrlar davomida olimlar ranglar haqida juda ko'p ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdasiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur allomalar ranglarning turlari, ma'nolari, inson sog'lig'iga ta'siri va boshqalar haqida juda ko'p asarlar yoganlar. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy o'zining „Kitob al-Javohir— ma'rifat al-Javohir" (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqish haqida ma'lumot bergan.

Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomini, hattoki, har bir rangning razmiy ma'nosini bilganlar.

Rang – inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamlarga har xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni „quvonchli" va kayfiyatimizni tushkunligiga ifoda etish mumkin bo'lganida „xira" deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimiy paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganini ma'lum qlamiz.

I Gyote birinchi bo'lib ranglarning ta'sirini, bitta ko'rinishdagi manzarani yashil, sariq, qizil va boshqa rangli shishalar orqali kuzatib, uni inson qanday idrok etishi va his qilishi holatlarini o'rgangan. Tasvirchilik faoliyatining ta'kidlashicha, odatda qizil rang va uning turli birikmlari – qo'zg'atuvchi, qizdiruvchi, jonlantiruvchi, faollashtiruvchi quvvat-baxsh, sariq rang iliq, tetiklashtiruvchi, quvontiruvchi jozibador, olovrang quvnoqlik, hurramilik, alangalik va hayrli sezgilarni keltirib chiqaradi deb hisoblangan.

Nyuton birinchi marta optik prizma orqali yuborilgan yorug'lik rangli nurlarga aylanganligini isbotlagan va uni ilmiy tarzda tushuntrib, spektr ranglarini yetti bo'lakka bo'lib uni doira shaklida joylashtirdi. Rangning asosiy xususiyatlari sifatida rang tusi, och-to'qligi va to'yinganligi kabilar hisoblanadi. Buyumlarning lokal rangi deyilganda uning asl rangi tushuniladi.

Rangni har kim o'ziga xos ravishda his qiladi. Bolalarga xos hissiyotlar shundan iboratki, ularda ziyraklik, kuch-quvvat, ruhiy kechinmalar, did, xulq

hali yetarlicha shakllanmagan. Rang sezish tuyg'usini rivojlantirishda rangtasvir mashg'ulotlari yordam beradi.

Rangning tusi. Bizning ongimizda rang tusi yaxshi tanish bo'lgan buyumlarning rangi bilan mos tushadi. Ranglarning ko'pgina nomlari tabiatdagi narsalarning ranglaridan to'g'ridan to'g'ri olingan bo'lib, qumrang, dengiz to'lqini rangi, zumradrang, shokolandrang, marojnarang, malinarang, olcharang, va ho'kozolar. Ranglarning nomini ifodalovchi, ya'ni ularning birini qizil, ikkinchisini ko'k, uchinchisini sariq deb atalishiga asos bo'lgan belgi rang tusi deyiladi.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistlik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko'nikma beribgina qolmay, balki uning estetik dinini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasvir san'ati yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Rasm chizish asoslarini o'rganish narsaning o'ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o'ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan har bir talabaga xos bo'lmog'i kerak.

Real va xayoliy borliq o'rtasida alohida tafovut bor. Real borliq mavjudlikni, xayoliy borliq mohiyatni belgilaydi. Real borliq narsalar, jarayonlar, shaxslar, xattiharakatlar va boshqa ning realligini bildiradi; u makon va zamon harakteriga ega, u alohida, betakror. Xayoliy borliq (g'oya ma'nosida) vaqtinchalik, haqiqiy, tajribaviy harakteridan mahrum, u fakt bo'la olmaydi; u qat'iy o'zgarmas (qotib qolgan), abadiy mavjud (N. Gartman). Xayoliy borliq bu ma'noda qadriyat, g'oya, matematik va mantiqiy tushuncha sifatida yuzaga chiqadi. Platon unda chin, xususiy „real“ borliq ni ko'radi. Umumiy ma'nodagi borliq dan muayyan borliq farq qiladi. Geraklit fikricha, hech qanday qotib qolgan borliq yo'q, doimo o'zgaruvchan borliq bor. Metafiziklar „haqiqiy“ borliq transsendent, narsa o'zidadir deb biladilar. Barcha mavjud narsalarning yig'indisini, umuman olamni borliq deb ataydilar. J. Berkli, D. Yum borliq faqat subyektda, ongdagina mavjud deb biladilar. Ba'zi faylasuflar borliq ni qandaydir dunyoviy ruhning, g'ayri moddiy kuchning ko'rinishlaridan iborat, deb hisoblaydilar.

Yirik olimlar tomonidan rang tufayli ramziy ma'noda „so'zlashish“, ranglar vositasida insonlarni davolash, tarbiyalash, ranglar jilg'asi orqali falsafiy fikr yuritish, rang orqali insonlarni ichki dunyosini anglash, shuningdek ranglarning qishloq xo'jaligi unumdorligini oshirishda, iqtisodda va boshqa masalalarni ijobiy hal etishdagi mavqeyi haqida tadqiqotlar olib

bormoqdalar. Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o'rni, shifobaxshligi, tarbiyaviy, falsafiy hayoliy va ruhiy tomonlari haqida juda ko'p ma'naviyat xazinalarini qoldirib ketganlar. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ranglarning inson hayotidagi o'rniga juda katta ahamiyat berilmoqda. Aslida rang atamasi to'rtta harfda iborat bo'lsada, uning ma'nosini va sirli olamini o'rganishga insonlarning umri yetmaydi.

Rasmning muhim tasviriy va ta'sir vositasi —rang(kolorit). Rang orqali borliq yoki xayoliy dunyoni ko'nikarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang barangligini, moddiyligini hajm va fakturasini ko'rsatishi, harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o'y - xayollarni aks ettirishi mumkin. Rangning tasviriy ifoda vositasi va ishlash uslubi ishlatiladigan rang , qurollar xususiyati , rang eritgichlari , asosi (funt) ga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Taktash R.X., *Izobrazitelnoye iskusstvo Uzbekistana*, T., 1972; *Iskusstvo Sovetskogo Uzbekistana*, M., 1976.
2. Шарипжонов, М., & Икромова, М. Д. (2018). TASVIRIY SAN'ATDA ANIMALIZM JANRI. *Научное знание современности*, (5), 94-96.
3. Т. Қо'зиёв , А. Егамов, Т. Қаноатова, А. Нурқобилова, „Rangtasvir“ , Т ; „San'at“ jurnali nashriyot, 2003.
4. „Рисунок, живопись, композиция“ (Авт. сост. Н. Н. Ростовцев, С.Е . Итнатъев. Е. В. Шорохов). М, : „Просвещение“ , 1989.
5. S. A. Abdullayev . *Rangtasvir . O'quv uslubiy qo'llanma*. T. 2003.
6. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 261-267.
7. Baymetov, B., & Sharipjonov, M. (2021). OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA INSON QIYOFASINI AMALIY TASVIRLASH JARAYONIDA IJODIY KOMPYETYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(3), 1066-1070.
8. Boltaboyevich, B. B., & Shokirjonugli, S. M. (2020). Formation of creative competences of the fine art future teachers describing geometrical forms (on sample of pencil drawing lessons). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1996-2001.
9. Байметов, Б., & Шарипжонов, М. (2020). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМДА ТАЛАБАЛАР ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА

ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ БЕРИШ МЕТОДИКАСИ (ҚАЛАМТАСВИР МИСОЛИДА). *Academic research in educational sciences*, (4), 357-363.

10. Байметов, Б. Б., & Шарипжонов, М. Ш. (2020). ТАСВИРИЙ САНЪАТДАН МАЛАКАЛИ ПЕДАГОГ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДА НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИНГ УЙҒУНЛИГИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 3).

11. Sharipjonov, M. S. O. G. L. (2021). OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TECHNOLOGIYALARI. *Science and Education*, 2(2), 435-443.

12. Шарипжонов, М. Ш. (2020). Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчисининг касбий маҳоратларини такомиллаштиришда амалий машғулотларни ташкил этиш методикаси. *Молодой ученый*, (43), 351-353.